



PROFILAKTIKA INSPEKTORINING TEZKOR-QIDIRUV XIZMATLARI BILAN HAMKORLIGI

Atajanov O'tkir Mamatsalayevich

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi mustaqil izlanuvchisi

Sitimova Mahliyo Shonazar qizi

O'zbekiston Respublikasi IIV Akademiyasi kunduzgi ta'lim
kursanti.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.17413529>

ARTICLE INFO

Received: 1st October 2025

Accepted: 15th October 2025

Published: 22nd October 2025

KEYWORDS

Profilaktika inspektori, tezkor-qidiruv xizmatlari, jinoyatchilikning oldini olish, huquqni muhofaza qilish organlari, huquqiy hamkorlik, axborot almashinuvi, jamoat xavfsizligi, kriminogen vaziyat, ijtimoiy profilaktika.

ABSTRACT

Mazkur maqolada profilaktika inspektorining jinoyatchilikka qarshi kurashishdagi o'рни, xususan uning tezkor-qidiruv xizmatlari bilan samarali hamkorligi tahlil qilinadi. Profilaktika inspektori faoliyatining huquqiy asoslari, amaliy vazifalari va ularning ichki ishlar organlari tizimidagi o'zaro aloqasi yoritiladi. Tezkor-qidiruv xizmatlari bilan o'zaro axborot almashinuvi, profilaktik tadbirlarning rejalashtirilishi va amalga oshirilishidagi muvofiqlik masalalari ko'rib chiqiladi. Maqolada, shuningdek, xalqaro tajriba asosida ushbu hamkorlikni yanada takomillashtirish bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan. Tadqiqot jinoyatlarning oldini olish, xavfsizlikni ta'minlash va ijtimoiy barqarorlikni mustahkamlashda profilaktika inspektori hamda tezkor-qidiruv xizmatlari o'rtasidagi integratsiyalashgan yondashuvning dolzarbligini asoslaydi.

Hozirgi davrda jamiyatda huquqiy madaniyatning shakllanishi, fuqarolarning huquqiy ongini yuksaltirish va jinoyatchilikning oldini olish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu nuqtai nazardan olib qaraganda, mahalliy profilaktika inspektorlarining faoliyati katta ahamiyat kasb etadi. Ular jinoyat sodir bo'lishidan oldingi bosqichda faoliyat yuritib, ijtimoiy xavfli xatti-harakatlarning oldini olishda bevosita ishtirok etadilar. Ayniqsa, ularning tezkor-qidiruv xizmatlari bilan tizimli va samarali hamkorligi jinoyatchilikka qarshi kurashda muhim omil hisoblanadi. Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy va axborot texnologiyalari rivojlanishi bilan bog'liq holda jinoyatlar shakli, yo'nalishi va uslublarida jiddiy o'zgarishlar yuz bermoqda. Jinoyatlarning oldini olishda an'anaviy yondashuvlar o'z samaradorligini yo'qotayotgani bois, yangicha va kompleks yondashuv zarurati tug'ilmoqda. Bu borada profilaktika inspektorining tezkor-qidiruv xizmatlari bilan hamkorligi, axborot almashinuvi, xavfli shaxslar ustidan kuzatuv va tahdidlarni bartaraf etishdagi o'zaro muvofiqlashtirilgan choralari ayni muddao bo'lib qolmoqda. Profilaktika inspektori va tezkor-qidiruv xizmatlari o'rtasidagi hamkorlikning huquqiy asoslari O'zbekiston Respublikasining "Ichki ishlar organlari to'g'risida"gi Qonuni, "Huquqbuzarliklar profilaktikasi to'g'risida"gi qonun, "Jinoyat-protsessual kodeksi", "Jinoyat kodeksi", shuningdek, tegishli farmon va qarorlar bilan tartibga solinadi. Biroq amaliyotda ushbu hamkorlik to'liq huquqiy mexanizmlarga ega emasligi, axborot almashinuvida uzilishlar, vakolatlarining chegaralanmaganligi, mas'uliyatni bo'lishishdagi noaniqliklar mavjudligi kuzatilmoqda. Shu sababli, mazkur maqola ushbu holatlarni ilmiy jihatdan o'rganish va takomillashtirish zaruratidan kelib chiqqan. Ichki ishlar organlarining soxaviy xizmatlari xodimlari

jamoat tartibini saqlash O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari, va fuqaroligi bo'lmagan shaxslarning huquqlarini, qonuniy manfaatlarini himoya qilish, jinoiy tajovuzlardan himoya qilish hamda xavfsizligini shuningdek huquqbuzarlik profilaktikasini taminlash borasida tegishli chora-tadbirlarni va holati doirasida mustaqil ravishda va o'zaro hamkorlikda amalga oshirishlari mumkin. Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasini amalga oshiruvchi asosiy subyektlari sifatida quyidagi asosiy soxaviy xizmatlarni keltirib o'tish mumkin:

- ✓ Huquqbuzarliklar profilaktikasi xizmati;
- ✓ Tezkor-qidiruv xizmati;
- ✓ Tergov xizmati;
- ✓ jamoat tartibini saqlash va patrul-post xizmatlari;
- ✓ yo'l harakati xavfsizligi xizmati.

Sodir etilgan jinoyatlarni issiq izidan ocish bo'yicha tezkor tadbirlarni tashkil etish, shuningdek, xorijiy davlatlar, xususan Germaniya, Buyuk Britaniya, AQSh va Rossiya Federatsiyasining huquqni muhofaza qilish organlari faoliyatida profilaktika va tezkor xizmatlar o'rtasida yuksak texnologiyalarga asoslangan o'zaro integratsiyalashgan tizimlar joriy etilgan. Bu esa jinoyatga olib keluvchi sabab va shart-sharoitlarni erta aniqlash imkonini bermoqda. O'zbekistonda esa bu yo'nalishda hali to'liq tizimlashtirilgan yondashuv shakllanmagan.

Profilaktika inspektorining jinoyatlarning oldini olishdagi o'rni va uning tezkor-qidiruv xizmatlari bilan hamkorlik shakllarini chuqur tahlil qilish, mavjud huquqiy va amaliy muammolarni aniqlash, shuningdek, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq taklif va tavsiyalar ishlab chiqish:

Birinchi: jinoyatchilikning murakkablashuvi va yoshlar o'rtasida huquqbuzarliklar sonining ortishi;

Ikkinchi: Huquqni muhofaza qilish tizimlarida ichki muvofiqlik va hamkorlikning yetarli darajada yo'lga qo'yilmaganligi;

Uchinchi: Xavfsizlikni ta'minlashda zamonaviy yondashuvlar va tizimli axborot almashinuvi zaruriyatini ko'rsatib bergan.

Profilaktika faoliyatini modernizatsiya qilish, tezkor-qidiruv xizmatlari bilan huquqiy jihatdan asoslangan va aniq reglamentlangan hamkorlik mexanizmlarini yaratishga xizmat qiladi. Shuningdek, jinoyatchilikni erta aniqlash va oldini olishga qaratilgan kompleks huquqiy choralarni ishlab chiqishda yordam beradi.

Yuqoridagilarni inobatga olgan holda quyidagi takliflar ilgari suriladi: Birinchi navbatda normativ-huquqiy asoslarni takomillashtirish ya'ni profilaktika inspektorlari va tezkor-qidiruv xizmatlari o'rtasidagi hamkorlikni aniq tartibga soluvchi alohida nizom yoki qonunosti hujjatini ishlab chiqish.

Ikkinchi: axborot almashinuvi platformasini joriy etish bo'lib, bunda ikkala tuzilma o'rtasida real vaqt rejimida ma'lumot almashishni ta'minlovchi yagona elektron tizimni yaratish orqali maqsadga erishish mumkin.

Uchinchi: uzluksiz malaka oshirish tizimini yo'lga qo'yish orqali profilaktika inspektorlari va tezkor-qidiruv xodimlari uchun qo'shma treninglar, maxsus kurslar va o'quv seminarlarini tizimli asosda tashkil etishdan iborat.

Hududda sodir etilgan jinoyatlarni issiq izidan tez va to'la ochish o'tgan yillarda sodir etilib ochilmay qolgan jinoyatlarni fosh etishda shuningdek boshqa noxush hodisa va holatlarning kelib chiqishi sabablari va shart-sharoitlarni aniqlash hamda bartaraf etish. Kriminogen vaziyatga tasir etuvchi omillarni taxlil qilishda birinchi bilvosita tasir qiluvchi xususan hududning joylashuvi maydoni axoli soni ishsizlik darajasi mavjud ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni, ikkinchi jinoyatchilikning jamiyatda bo'lishini rivojlanishini taqozo qiluvchi belgilab beruvchi tasir qiluvchi sabablari sifatida harakat

qiluvchi hodisalar voqealar va jarayonlarni ular o'rtasida sababiy bog'lanishni o'rganish kerak.

Profilaktika inspektorining tezkor-qidiruv xizmatlari bilan hamkorligi quyidagi o'ziga xos xususiyatlarga ega:

-Birgalikdagi faoliyatining subyekt obyekt va predmeti mavjudligi-faoliyatga umumiy maqsad vazifa va yo'nalishlari -hamkorlikning mukammal optimal har ikki tomon uchun maqbul bo'lgan shakl va usullarini qo'llanilishi-axborot taminoti va taxlilga egaligi-ishtirokchilarning hamkorlikni tashkil etish uchun masulligi va birgalikdagi faoliyatining baxolab borilishi.Hamkorlikning axamiyati shundaki jinoyatchilikka qarshi kurash va huquqbuzarliklar profilaktikasi amalga oshirishda muvofiqlashgan harakati orqali erishish mumkin. Zero, doimiy muvofiqlashgan o'zaro hamkorliksiz jamoat tartibini saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurash, huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni tashkiliy ravishda amalga oshirib bo'lmaydi. Jamiyat azolarining tinchligi va osoyishtaligi xavfsizligini taminlash ichki ishlar organlarining muhim vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu maqsadda ushbu yo'nalishda tadbirlar islohotlar amalga oshirildi va huquqbuzarliklar profilaktikasini barvaqt oldini olish alohida o'rin egallaydi.

Xulosa qilib aytganda, profilaktika inspektorining tezkor-qidiruv xizmatlari bilan samarali hamkorligi jinoyatchilikning oldini olish, xavfsizlikni ta'minlash va huquqiy tartibot barqarorligini mustahkamlashda muhim o'rin tutadi. Mavzuni chuqur o'rganish shuni ko'rsatadiki, mavjud huquqiy asoslarni kuchaytirish, zamonaviy axborot tizimlarini joriy etish va kadrlar salohiyatini oshirish orqali bu hamkorlikni yangi bosqichga olib chiqish mumkin. Mazkur maqolada ilgari surilgan takliflar mamlakatda jinoyatchilikka qarshi kurashning sifat jihatidan yangi yondashuvini shakllantirishga xizmat qiladi. Shuningdek, bu yo'nalishda xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda milliy qonunchilikni takomillashtirish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Ўзбекистон Республикаси Конституцияси Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 01.05.2023 й., 03/23/837/0241-сон) <https://lex.uz/docs/6445145> (Мурожаат вақти: 08.10.2025й)
2. Ўзбекистон Республикасининг 2014 йил 14 майдаги «Хуқуқбузарликлар профилактикаси тўғрисида»ги қонуни. (Мурожаат вақти: 08.10.2025й)
3. Мирзиёев Ш.М. Жамоат хавфсизлигини таъминлаш ва жиноятчиликка қарши курашиш соҳасида ички ишлар органлари фаолиятини сифат жиҳатидан янги босқичга кўтариш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Президент Фармони – 2021(Мурожаат вақти: 08.10.2025й)
4. Шавкат Мирзиёев. «Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови ». Ўзбекистон Республикаси Конституцияси қабул қилинганлигининг 24 йиллигига бағишланган танталали маросимдаги маърузаси./ Халқ сўзи. - 2016. -№ 243(6678) Б. 1-3(Мурожаат вақти: 08.10.2025й)
5. Мирзиёев Ш.М. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз. – Т., «Ўзбекистон», 2016. – 56 б. (Мурожаат вақти: 08.10.2025й)
6. Мирзиёев Ш.М. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш – юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.– Т.,«Ўзбекистон»,2017.–48 б. (Мурожаат вақти: 08.10.2025й).
7. 2022 йил 28 январда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг Тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сонли Фармони. (Мурожаат вақти: 08.10.2025й).

8. Атажанов Ў. М. ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИЧКИ ИШЛАР ОРГАНЛАРИ ПРОФИЛАКТИКА ИНСПЕКТОРЛАРИНИНГ ЖАМОАТ ХАВФСИЗЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДАГИ ДОЛЗАРБ МАСАЛАЛАР //World scientific research journal. – 2023. – Т. 12. – №. 2. – С. 81-89.
9. Атажанов Ў. Шаҳар ҳудудида жамоат хавфсизлигини таъминлаш бўйича профилактика инспектори фаолиятини ҳуқуқий тартибга солишнинг бугунги ҳолати ва ўзига хос хусусиятлари //Актуальные вопросы обеспечения прав женщин и предотвращения насилия в семье в Узбекистане. – 2024. – Т. 1. – №. 1. – С. 24-30.
10. Майор А. Ў. ички ишлар органлари профилактика инспекторларининг маҳалла фуқаролар йиғинларидаги ҳисобот бериш фаолиятининг ҳуқуқий асослари таҳлили //Journal of new century innovations. – 2022. – Т. 11. – №. 6. – С. 117-121.
11. Атажанов, У.М. (2025). теоретический анализ взаимосвязи цифровой криминалистики и деятельности инспекторов профилактики по организационной и координационной профилактики правонарушений в условиях цифровизации общества. journal of innovations in scientific and educational research, 8(5), 127-135.
12. Ганиев Ф.Т., Давлетов Ф. работа инспектора профилактики с безнадзорными и беспризорными несовершеннолетними в республике узбекистан: проблемы и пробелы на практике //central asian journal of multidisciplinary Research and Management Studies. – 2024. – Т. 1. – №. 16. – С. 179-182.
13. Адхамов, Зафар Акбарович. "Шахсларни зўравонлик ҳулқ-атворини ўзгартириш бўйича тузатиш дастуридан ўтказишда диний уламолар билан ҳамкорликнинг аҳамиятли жиҳатлари." the theory of recent scientific research in the field of pedagogy 2.20 (2024): 114-117.
14. Адхамов, З. А. (2025). Профилактика инспекторларининг назорат-лицензия қоидаларига риоя этилишини таъминлаш фаолиятининг ҳуқуқий асослари. Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies, 2(2-2), 165-172.
15. Мустофақулов Б. А. Ў., Шодмонов Д. Э. Ў. Профилактика инспекторининг патрул-пост хизмати ва жамоат тартибини сақлаш бўлинмалари билан ўзаро ҳамкорлигини такомиллаштириш //Central Asian Journal of Multidisciplinary Research and Management Studies. – 2025. – Т. 2. – №. 4. – С. 47-51.